O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK 378.147:070:811.111

Kamola X. ABDUJABAROVA,
Katta o‘qituvchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: kamola@mail.ru, ORCID: 0009-0005-2601-0850

F.f.d., professor U.Esanov taqrizi asosida

BO‘LAJAK JURNALISTLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI O‘QISH VA TINGLAB TUSHUNISH ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak jurnalistlarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini o‘qish va tinglab tushunish faoliyatlari asosida rivojlantirishning nazariy hamda metodik jihatlari yoritilgan. Jurnalistika yo‘nalishi talabalarining kasbiy ehtiyojlariga mos autentik yangilik matnlari, media materiallar, intervyular, reportajlar, podkastlar va audiovizual manbalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. O‘qish va tinglab tushunish jarayonida talabalarning axborotni anglash, asosiy hamda ikkilamchi mazmunni farqlash, media xabarlarini tanqidiy tahlil qilish, kasbiy terminlarni o‘zlashtirish va o‘z fikrini ingliz tilida izchil ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari o‘qish va tinglab tushunish faoliyatlarini jurnalistik mazmundagi materiallar bilan uyg‘unlashtirish bo‘lajak jurnalistlarning lingvistik, pragmatik va kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak jurnalist, kommunikativ kompetensiya, ingliz tili, o‘qish, tinglab tushunish, autentik material, kasbiy muloqot, innovatsion texnologiya.

DEVELOPING FUTURE JOURNALISTS’ COMMUNICATIVE COMPETENCE THROUGH READING AND LISTENING COMPREHENSION

Annotation

This article examines the theoretical and methodological aspects of developing future journalists’ communicative competence in English through reading and listening comprehension activities. It analyzes the possibilities of using authentic news texts, media materials, interviews, reports, podcasts, and audiovisual resources suited to the professional needs of journalism students. Particular attention is paid to developing students’ abilities to comprehend information, distinguish between main and supporting ideas, critically analyze media messages, acquire professional terminology, and express their opinions coherently in English. The research findings demonstrate that integrating reading and listening comprehension activities with journalism-related materials contributes to the development of future journalists’ linguistic, pragmatic, and professional communicative competence.

Keywords: future journalist, communicative competence, English, reading, listening comprehension, authentic material, professional communication, innovative technology.

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ЖУРНАЛИСТОВ НА ОСНОВЕ ЧТЕНИЯ И АУДИРОВАНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические и методические аспекты развития коммуникативной компетенции будущих журналистов на английском языке посредством чтения и аудирования. Анализируются возможности использования аутентичных новостных текстов, медиаматериалов, интервью, репортажей, подкастов и аудиовизуальных ресурсов, соответствующих профессиональным потребностям студентов направления журналистики. Особое внимание уделяется формированию у студентов умений понимать информацию, различать основное и второстепенное содержание, критически анализировать медиасообщения, усваивать профессиональную терминологию и последовательно выражать свои мысли на английском языке. Результаты исследования показывают, что интеграция чтения и аудирования с материалами журналистской направленности способствует развитию языковой, прагматической и профессионально-коммуникативной компетенций будущих журналистов.

Ключевые слова: будущий журналист, коммуникативная компетенция, английский язык, чтение, аудирование, аутентичный материал, профессиональное общение, инновационная технология.

Kirish. Bugungi globallashuv, raqamli kommunikatsiya va transmilliy axborot almashinuvi sharoitida jurnalistlarning xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini puxta egallashi kasbiy tayyorgarlikning muhim mezonlaridan biriga aylandi. Ingliz tili xalqaro media makonida keng qo‘llanilishi sababli bo‘lajak jurnalistlarga xorijiy axborot manbalaridan foydalanish, voqea-hodisalarni turli nuqtayi nazardan o‘rganish, xalqaro ekspertlar bilan muloqot qilish hamda jahon yangiliklarini tezkor tahlil etish imkonini beradi. Binobarin, jurnalistika yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitish faqat grammatik qoidalar va umumiy leksikani o‘zlashtirish bilan cheklanmasdan, kasbiy faoliyatga mos kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim.

“Kommunikativ kompetensiya” tushunchasi dastlab amerikalik olim D.Hymes tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, u tilni bilishni grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish bilangina emas, balki nutqni muayyan ijtimoiy vaziyatga mos ravishda qo‘llash qobiliyati bilan bog‘lagan. Keyinchalik M.Canale va M.Svain kommunikativ kompetensiyaning grammatik, sotsiolingvistik va strategik tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatgan. M.Canale mazkur modelni rivojlantirib, unga diskursiv kompetensiyani ham kiritgan. L.Bachman esa kommunikativ til qobiliyatini tashkiliy va pragmatik kompetensiyalar birligi sifatida talqin qilgan. Ushbu nazariy qarashlar kommunikativ kompetensiyaning til birliklarini bilishdan ko‘ra kengroq tushuncha ekanini, ya’ni axborotni anglash, vaziyatga mos fikr bildirish va kommunikativ maqsadga erishish ko‘nikmalarini ham qamrab olishini ko‘rsatadi.

Bo‘lajak jurnalistlar uchun kommunikativ kompetensiya ingliz tilidagi axborotni tushunish, asosiy va ikkilamchi ma’lumotlarni farqlash, manbaning ishonchliligini baholash, muallif pozitsiyasini aniqlash, turli manbalardagi xabarlarni qiyoslash hamda olingan ma’lumotni og‘zaki yoki yozma shaklda

qayta ifodalash qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi. Mazkur kompetensiyani shakllantirishda o‘qish va tinglab tushunish nutq faoliyatining asosiy retseptiv turlari sifatida alohida ahamiyatga ega. Chunki jurnalistning kasbiy faoliyati yangiliklar, tahliliy maqolalar, intervyular, reportajlar, brifinglar, matbuot anjumanlari va audiovizual materiallarni qabul qilish hamda tahlil etish bilan bevosita bog‘liq.

S.Krashenning tushunarli til materiali haqidagi qarashlariga ko‘ra, o‘rganuvchining mavjud bilim darajasidan biroz yuqori, ammo kontekst yordamida anglash mumkin bo‘lgan til materiali kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi. M.Longning interaktiv yondashuvida esa tushunilmagan birliklarni aniqlashtirish, savol berish va mazmunni muzokara qilish til o‘rganishning muhim sharti sifatida belgilanadi. M.Svain tomonidan ilgari surilgan nutqiy mahsulot yaratish nazariyasi qabul qilingan axborotni gapirish yoki yozish orqali qayta ifodalash til kompetensiyasini mustahkamlashini ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qilgan yangilik matni yoki tinglangan reportaj asosida munozara, sharh, xulosa, intervyu yoxud qisqa xabar tayyorlash bo‘lajak jurnalistlarning retseptiv va produktiv ko‘nikmalarini uzviy rivojlantiradi [3;28].

Media ta’limi sohasida D.Buckingham media materiallarini shunchaki axborot manbasi sifatida emas, balki tanqidiy tahlil qilinadigan ijtimoiy va madaniy mahsulot sifatida o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. J.Potter mediasavodxonlikni turli shakldagi xabarlarni qabul qilish, tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beruvchi bilim hamda ko‘nikmalar majmui sifatida izohlaydi. Bu qarashlar jurnalistika yo‘nalishida ingliz tilini o‘qitish jarayonida talabalarning nafaqat til kompetensiyasini, balki axborotning ishonchliligi, xolisligi, manbasi va kommunikativ ta’sirini baholash qobiliyatini ham rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, amaldagi ingliz tili mashg‘ulotlarida o‘qish va tinglab tushunishga oid topshiriqlar ayrim hollarda umumiy mavzular doirasida tashkil etilib, jurnalistika sohasining real kasbiy vaziyatlari yetarli darajada hisobga olinmaydi. O‘qish va tinglash faoliyatlarining bir-biridan ajratilgan holda o‘rgatilishi, olingan axborotni tekshirish, qiyoslash, sharhlash va uning asosida yangi media mahsulot yaratishga qaratilgan topshiriqlarning kamligi talabalarning kommunikativ faolligini cheklaydi. Natijada ular tilga oid nazariy bilimlarga ega bo‘lsalar-da, autentik media materiallarini tezkor tushunish va ulardan kasbiy muloqotda foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Mazkur muammoni bartaraf etishda xalqaro axborot agentliklari xabarlari, gazeta va internet nashrlari, videoreportajlar, intervyular, podkastlar, matbuot anjumanlari va boshqa autentik media materiallaridan tizimli foydalanish muhimdir. Bunday manbalar talabalarning kasbiy lug‘at boyligini kengaytiradi, ularni tabiiy nutq sur’ati va turli talaffuz xususiyatlariga moslashtiradi, media janrlarini farqlash hamda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘qish va tinglab tushunishni gapirish hamda yozish faoliyatlari bilan integratsiyalash esa qabul qilingan axborotni faol kommunikativ mahsulotga aylantirish imkonini beradi.

Shu jihatdan bo‘lajak jurnalistlarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini o‘qish va tinglab tushunish asosida rivojlantirish muammosi dolzarb ilmiy-metodik ahamiyatga ega. Mazkur maqolaning maqsadi autentik media materiallari va integrativ topshiriqlardan foydalanish orqali bo‘lajak jurnalistlarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda samarali metodik yo‘llarini yoritishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak jurnalistlarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalasi xorijiy til o‘qitish metodikasi, kommunikativ tilshunoslik va media ta’limi doirasida keng o‘rganilgan. D.Hymesning “On communicative competence” asarida kommunikativ kompetensiya til birliklarini nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri, balki ijtimoiy vaziyatga mos qo‘llash qobiliyati sifatida izohlangan. M.Kanale va M.Svain “Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing” tadqiqotida uning grammatik, sotsiolingvistik va strategik tarkibiy qismlarini ajratgan. L.Bachman esa “Fundamental considerations in language testing” kitobida kommunikativ til qobiliyatini tashkiliy va pragmatik kompetensiyalar birligi sifatida tavsiflagan. [6].

Tinglab tushunish masalalari J.Fieldning “Listening in the language classroom”, M.Rostning “Teaching and researching listening”, L.Vandergrift va C.Gohning “Teaching and learning second language listening” kitoblarida tadqiq qilingan. Media ta’limining nazariy jihatlari D.Buckinghamning “Media education”, J.Potterning “Media literacy” va R.Hobbsning “Digital and media literacy” asarlarida o‘rganilgan. [7].

O‘zbekistonlik olimlardan J.Jalolov “Chet til o‘qitish metodikasi” asarida o‘qish, tinglash, gapirish va yozuv ko‘nikmalarini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish zarurligini asoslagan. G‘.Hoshimov va I.Yoqubovning “Ingliz tili o‘qitish metodikasi” kitobida ingliz tilini kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish masalalari yoritilgan. K.Abdujabborovaning tadqiqotlarida esa yangilik matnlaridan talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlari ko‘rsatilgan. [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot bo‘lajak jurnalistlarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini o‘qish va tinglab tushunish faoliyatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini kommunikativ, kompetensiyaviy, kasbiy yo‘naltirilgan, integrativ va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etdi. Mazkur yondashuvlarning birgalikda qo‘llanishi ingliz tilini faqat nazariy bilimlar majmui sifatida emas, balki kasbiy axborotni qabul qilish, tushunish, tanqidiy tahlil qilish va uni muloqot jarayonida qayta ifodalash vositasi sifatida o‘rganish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, tavsiflash, qiyosiy tahlil, savol-javob, topshiriqlar natijalarini o‘rganish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Dastlab kommunikativ kompetensiya, o‘qib tushunish, tinglab tushunish, autentik materiallardan foydalanish va kasbiy yo‘naltirilgan xorijiy til ta’limiga oid xorijiy hamda mahalliy ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil qilindi. Nazariy manbalarni o‘rganish asosida bo‘lajak jurnalist uchun zarur bo‘lgan kommunikativ ko‘nikmalar va ularni shakllantirishga xizmat qiluvchi mashqlar tizimi belgilandi.

Faoliyat jarayonidagi bosqichda talabalar materialni bir necha maqsad asosida o‘qidi yoki tingladi. Dastlab matn yoki audio-videomaterialning umumiy mazmuni va asosiy g‘oyasini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar bajarildi. Keyingi o‘qish yoki tinglashda aniq faktlar, shaxslar, joylar, sanalar, sabab va oqibat munosabatlari hamda muallif yoki so‘zlovchining pozitsiyasi belgilandi. Talabalar asosiy va ikkilamchi axborotni farqlash, kalit so‘zlarni qayd etish, voqealar ketma-ketligini tiklash, sarlavha bilan mazmun o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash va faktni fikrdan ajratishga yo‘naltirildi. [8].

Tadqiqotda o‘qish va tinglab tushunish bir-biridan ajratilgan ko‘nikmalar sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq retseptiv faoliyatlar sifatida tashkil etildi. Masalan, talabalar dastlab muayyan voqea haqidagi yozma yangilikni o‘qidilar, so‘ng ushbu voqea bo‘yicha videoreportajni tomosha qildilar. Keyin yozma va audiovizual manbalardagi o‘xshash hamda farqli ma’lumotlarni aniqladilar. Bunday integrativ topshiriqlar axborotni turli kanallar orqali qabul qilish, uni tekshirish, qiyoslash va umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirdi.

Mashg‘ulotlarda individual, juftlik va kichik guruh shakllaridan foydalanildi. Individual topshiriqlar har bir talabaning materialni mustaqil anglash darajasini aniqlashga xizmat qilgan bo‘lsa, juftlik va guruhiy faoliyatlar o‘zaro fikr almashish, tushunilmagan ma’lumotlarni aniqlashtirish va hamkorlikda xulosa chiqarish imkonini berdi. O‘qituvchi mazkur jarayonda tayyor ma’lumotni yetkazuvchi emas, balki talabalarni izlanish va muloqotga yo‘naltiruvchi maslahatchi vazifasini bajardi.

Talabalarning kommunikativ kompetensiyasidagi o‘zgarishlarni aniqlashda bir nechta baholash mezonlaridan foydalanildi. Jumladan, matn va audiomaterialning asosiy mazmunini anglash, muhim axborotni ajratish, kasbiy leksikani to‘g‘ri qo‘llash, muallif yoki so‘zlovchi pozitsiyasini aniqlash, fikrni mantiqiy va ravon ifodalash, savollarga asosli javob berish hamda guruhiy muloqotda faol ishtirok etish darajalari hisobga

olindi. Baholashda test topshiriqlari, mazmunni qayta hikoya qilish, yozma sharh, og‘zaki taqdimot, intervyu va reflektiv savollardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari autentik yangilik matnlari, intervyular, videoreportajlar va podkastlardan foydalanish bo‘lajak jurnalistlarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali ekanini ko‘rsatdi. Bunday materiallar talabalarning kasbiy terminlarni o‘zlashtirishi, asosiy axborotni ajratishi, media xabarlarini tanqidiy tahlil qilishi va o‘z fikrini ingliz tilida ifodalashiga yordam berdi.

Dastlab talabalar notanish so‘zlarni so‘zma-so‘z tarjima qilishga intilgani sababli matnning umumiy mazmunini tushunishda qiynaldilar. Ko‘z yugurtirib o‘qish, kerakli axborotni izlash, kontekst asosida ma’noni aniqlash va asosiy hamda ikkilamchi ma’lumotlarni farqlashga qaratilgan mashqlardan keyin ularning o‘qish tezligi va mazmunni anglash darajasi yaxshilandi. Bir voqeaning turli manbalarda yoritilishini qiyoslash esa talabalarda fakt va fikrni farqlash, muallif pozitsiyasi hamda manba ishonchliligini baholash ko‘nikmalarini shakllantirdi.

Tinglab tushunishda tabiiy nutq tezligi, turli aksentlar va notanish terminlar asosiy qiyinchiliklar sifatida kuzatildi. Materialni bosqichma-bosqich va takroriy tinglash, tayanch so‘zlar bilan oldindan ishlash hamda vizual vositalardan foydalanish ushbu qiyinchiliklarni kamaytirdi. Natijada talabalar reportaj va intervyulardagi asosiy g‘oya, muhim faktlar hamda so‘zlovchining munosabatini aniqroq tushuna boshladilar.

O‘qish va tinglashni integratsiyalash ayniqsa samarali bo‘ldi. Talabalar bir mavzudagi yozma va audiovizual manbalarni qiyoslab, ma’lumotlarni tekshirish, umumlashtirish va baholashga o‘rgandilar. Olingan axborot asosida sharh yozish, intervyu tuzish, munozara o‘tkazish va qisqa reportaj tayyorlash ularning gapirish hamda yozish ko‘nikmalariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, talabalarning til darajasi va mavzu bo‘yicha fon bilimlaridagi farqlar ayrim murakkabliklarni yuzaga keltirdi. Ularni kamaytirish uchun darajalashtirilgan topshiriqlar, tayanch iboralar va qisqa terminologik lug‘atlardan foydalanish zarurligi aniqlandi. Umuman, autentik media materiallari asosida o‘qish va tinglab tushunishni gapirish hamda yozish bilan uyg‘unlashtirish bo‘lajak jurnalistlarning lingvistik, pragmatik va kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tahlillar bo‘lajak jurnalistlarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda o‘qish va tinglab tushunish faoliyatlarini o‘zaro uyg‘un holda tashkil etish muhim ilmiy-metodik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Mazkur nutq faoliyati turlari talabalarga xorijiy tildagi axborotni qabul qilish imkonini berish bilan cheklanmay, uni tushunish, saralash, tahlil qilish, baholash va qayta ifodalash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Bu esa bo‘lajak jurnalistning kasbiy tayyorgarligida zarur bo‘lgan lingvistik, diskursiv, pragmatik, strategik va media kompetensiyalarining o‘zaro bog‘liq holda rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘qib tushunish jarayonida ko‘z yugurtirib o‘qish, muayyan axborotni izlash, batafsil va tanqidiy o‘qish strategiyalaridan foydalanish talabalarning katta hajmdagi media axborotini tezkor qayta ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu strategiyalar orqali ular matnning asosiy g‘oyasini aniqlash, muhim dalillarni topish, fakt va fikrni farqlash, muallif pozitsiyasini tushunish hamda xabarning ishonchliligini baholashga o‘rganadilar. Bunday ko‘nikmalar zamonaviy jurnalist faoliyatining asosiy talablaridan hisoblanadi.

Tinglab tushunish faoliyati esa intervyu, reportaj, yangiliklar dasturi, podkast va matbuot anjumanlaridagi axborotni tezkor qabul qilish hamda mazmunini anglash qobiliyatini shakllantiradi. Tabiiy nutq tezligi, turli aksentlar va notanish kasbiy terminlar talabalarga muayyan qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shu bois tinglashdan oldingi tayyorgarlik, mazmunni taxmin qilish, tayanch so‘zlarni aniqlash, materialni bosqichma-bosqich tinglash va olingan axborotni qayta bayon etishga asoslangan topshiriqlardan tizimli foydalanish zarur.

Mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishda materiallarni talabalarning til darajasi, kasbiy qiziqishi va mavjud bilimlariga muvofiq tanlash muhim hisoblanadi. Topshiriqlar soddadan murakkabga qarab tuzilishi, talabalarni har bir notanish so‘zni tarjima qilishga emas, balki kontekst va umumiy mazmun orqali tushunishga yo‘naltirishi kerak. Til darajasidagi farqlarni hisobga olish uchun darajalashtirilgan topshiriqlar, tayanch iboralar, terminologik lug‘atlar va individual tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Abdujabborova K. Communicative Competence Development in English Language Education: Contemporary Directions //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2026. – T. 5. – №. 1. – C. 55-61.
2. Abdujabborova K. Yangilik matnlari asosida talabalarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish modeli // Til va adabiyot.uz. – 2025. – № 15. – B. 71–73.
3. Field J. Listening in the Language Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 366 p.
4. Grabe W. Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 467 p.
5. Vandergrift L., Goh C.C.M. Teaching and Learning Second Language Listening: Metacognition in Action. – New York: Routledge, 2012. – 315 p.
6. Abdujabborova K. Zamonaviy ommaviy axborot vositalarida ingliz tilining o‘rni va uning malaka darajasi talablari // Ilm-fan. – 2025. – T. 3. – № 21. – B. 17–19. – https://doi.org/10.5281/zenodo.15621220
7. Abdujabborova, K. Abdujabborova K. A news-text-based model for developing students’ English communicative competence // Academic Research in Modern Science. – 2026. – T. 5. – № 20. – B. 109–113. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20701712
8. Abdujabarova K. Talabalarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda o‘qish va tinglab tushunish metodikasidan foydalanishning innovatsion usullari. – 2026. – 16-fevral. – B. 180–183. – https://doi.org/10.5281/zenodo.18662816
9. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – 4th ed. – Harlow: Pearson Longman, 2007. – 448 p.
10. Hobbs R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2011. – 232 p.
11. Hymes D. On communicative competence // Sociolinguistics: Selected Readings / ed. by J.B. Pride, J. Holmes. – Harmondsworth: Penguin Books, 1972. – P. 269–293.